O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 13-08-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

213969 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshag‘och va Abdulla Qahhor ko'chalari kesishmasida joylashgan Celebrity Residental MChJ korxonasiga tegishli hududda ko'p qavatli turar-joy va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish binolari majmuasining qurilishi (korrektura)	
Buyurtmachi:	CELEBRITY RESIDENTAL MCHJ
Bosh loyihachi:	"MODUL GROUP PLUS" mas’uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	019521

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshent shahar Qurilish bosh borqarmasining 2019-yil 25-yanvardagi 4982593/1-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh borqarmasi tomonidan 2024-yil 6-mayda berilgan 1726-1726287-190333-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2024-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i (korrektirovka).

1.4. “ToshqurilishmateriallariLITI” MChJ tomonidan 2022 yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.5. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2022-yil 3-oktyabrda tuzilgan 56-22-sonli shartnoma.

1.6. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 2024-yil 16-fevralda berilgan 054923-sonli texnik sharti.

1.7. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ tomonidan 2022-yil 4-noyabrda berilgan 270/4-3169-sonli texnik sharti.

1.8. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent shahar hududiy filiali tomonidan 2024-yil 26-fevralda berilgan 05-0374-sonli texnik sharti.

1.9. “Qishloqqurilishloyiha” DM tomonidan 2024-yilda Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshag‘och (130-uy) va Abdulla Qahhor (49a-uy) ko'chalarida joylashgan 1-sonli turar-joy binosi konstruksiyalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta’minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog‘i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- aloqa tizimi (SS);
- Yong'in signalizatsiyasi va yong'in haqida xabar berish tizimi (PS);
- avtomatik yong‘inni o‘chirish tizimi (APT)
- videokuzatuv (VN);
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi va h.k.

2.2. «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Toshkent viloyati filiali tomonidan 2021-yil 28-dekabrda berilgan 29668-sonli yig‘ma ekspertiza xulosasi.

2.3. «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK tomonidan 2023-yil 23-yanvarda berilgan 86913-sonli yig‘ma ekspertiza xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq – qum-tosh aralashmasi.

Yer osti suvlari yer sathidan 4.2-5.1 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob’ekt Toshkent shahri Kichik beshyog‘och va A.Qodiriy ko‘chalarida joylashgan.

Ushbu loyihada 2 ta turar-joy binosiga o‘zgartirishlar kiritish ko‘zda tutilgan.

1-sonli turar-joy binosi 5 ta blok-seksiyadan, 2-sonli turar-joy binosi 8 ta blok-seksiyadan iborat.

Bundan tashqari yer osti avtoturargohdan iborat bo‘lib, seysmik choklar bilan bir-biridan ajratilgan.

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

1-sonli turar-joy

1-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 26.3x18.3m. Yerto‘la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

2-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 34.3x18.3m. Yerto‘la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

3-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 23.6x18.3m. Yerto‘la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

4-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 26.3x18.3m. Yerto‘la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

5-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 26.3x18.3m. Yerto‘la balandligi 3.02m, 1-qavat balandligi 4.83m, 2-qavat balandligi 3.6m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

Turar-joy binosining yerto‘la qismida texnik xonalar, avtoturargoh joylashgan. Birinchi qavatida savdo-maishiy xonalar joylashgan. Yuqori qavatlarda xonadonlar joylashgan.

Avtoturargoh – yerto‘lali, bir qavatli bo‘lib, uchburchak shaklga ega, o‘lchamlari 97.25x56.82m. Yerto‘la balandligi 3.0m, 1-qavat balandligi 3.83m (poldan shiftgacha).

texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 5286.04 m^2
Umumiy maydoni - 34628.22 m^2
Qurilish hajmi - 145438.35 m^3

Klub maydoni – uch qavatli, terrasali bino bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 15.4x16.14m.

2-3-qavat va terrrasa o‘lchamlari 15.4x6.9m. Birinchi qavat balandligi 4.59m, yuqori qavatlar balandligi 3.36m.

texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 190.52 m^2
Umumiy maydoni - 458.78 m^2
Qurilish hajmi - 1777.2 m^3

2-sonli turar-joy

1, 2 -blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 26.0x18.0m. Yerto‘la balandligi 3.67 - 4.27m, 1-qavat balandligi 4.9m, 2-qavat balandligi 3.4m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

3-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 25.1x18.0m. Yerto‘la balandligi 3.67 - 4.27m, 1-qavat balandligi 4.3m, 2-qavat balandligi 3.4m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

4-8-blok - bino o‘n uch qavatli, yerto‘lali to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 25.1x18.0m. Yerto‘la balandligi 3.67 - 4.27m, 1-qavat balandligi 4.3m, 2-qavat balandligi 3.4m, 3-13-qavatlar balandligi 3.4m (poldan polgacha).

Avtoturargoh – yerto‘lali, bir qavatli bo‘lib, uchburchak shaklga ega, o‘lchamlari 106.9x52.9m. Yerto‘la balandligi 3.39m, 1-qavat balandligi 3.9m (poldan shiftgacha).

texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 7906.54 m^2
Umumiy maydoni - 50125.95 m^2
Qurilish hajmi - 207353.03 m^3

Klub maydoni – uch qavatli, terrasali bino bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 21.5x10.5m. Birinchi qavat balandligi 4.06m, 2-qavat balandligi 3.18m, 3-qavat balandligi 3.22m.

texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 238.71 m^2
Umumiy maydoni - 1058.13 m^2
Qurilish hajmi - 4093.87 m^3

Binoni tashqi pardozlash:

Poypesh – keramogranit bilan qoplangan.

Tashqi devorlar – keramogranit, “SIBALUX” alyumin kompozit panellari fasad emulsiyasi bilan bo‘yalgan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Devorlar – suv emulsiyasi bilan qoplangan, keramik plita.

Shiftlar – suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, plastik reyka.

Pollar – beton, laminat, itallogranit, keramik plitalar.

Derazalar – alyumin va PVX profillardan iborat.

Eshiklar – MDF, metall.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – qattiqlik diafragmasi bo‘lgan, monolit temir-beton karkas.

Poydevori – qalinligi 1400mm bo‘lgan monolit temirbeton plita.

Poydevor devorlari – 400 mm qalinlikdagi monolit temirbeton.

Devorlar – qalinlikdagi 300mm, 200mm va 100mm bo‘lgan gazoblokdan iborat.

Pardevorlar - gazoblokdan iborat.

Qattiqlik diafragmasi – 400mm qalinlikdagi monolit temirbeton.

Ustunlar – kesimi 400x400mm, 500x500mm bo‘lgan monolit temirbeton.

To‘sinlar - kesimi 400x400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Orayopma – qalinligi 160mm va 180mm bo‘lgan monolit temirbeton iborat.

Zinapoyalar - monolit temirbeton.

Tom qoplama – yumshoq.

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – S1.

3.5. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 70 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Turar-joy binosi tom qismida har birining quvvati 550 Vt bo‘lgan 883 dona quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2023-yil 18-oktyabrdagi 95726701-sonli xulosa).

- O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 03-apreldagi 01-02/14-417-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi, Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining ijobiy xulosasini olishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshag‘och va Abdulla Qahhor ko'chalari kesishmasida joylashgan Celebrity Residental MChJ korxonasiga tegishli hududda ko'p qavatli turar-joy va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish binolari majmuasining qurilishi (korrektura)» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Ushbu yig‘ma ekspertiza xulosasi taqdim qilinishi bilan, 2021-yil 28-dekabrda berilgan 29668-sonli va 2023-yil 23-yanvarda berilgan 86913-sonli yig‘ma ekspertiza xulosasilari bekor qilinadi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To‘rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Musayev Rustam Talatovich, Yunusov Anvar Baxtiyarovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Avazov Xashimjon To‘rabayevich